


# Qoraqalpog'iston Respublikasi

## Statistika boshqarmasi



### 2023-YIL YANVAR-SENTABR OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR





2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 7881,0 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 61,5 % i yoki 4846,3 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 38,5 % yoki 3034,7 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022-yildagi ulushiga nisbatan 4,8 % punktga kamayib, 24,2 % ni yoki 1907,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 5973,2 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 75,8 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2022-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % punktga ko'paydi.

## O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar

Hajmi	30,2 mlrd. so'm
O'sishi	28,1 %
Jamiga nisbatan	0,4 %

## Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

Hajmi	1046,5 mlrd. so'm
O'sishi	122,2 %
Jamiga nisbatan	13,2 %

## Respublika budjeti

Hajmi	831,1 mlrd. so'm
O'sishi	73,7 %
Jamiga nisbatan	10,6 %

## Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari tarkibi

1

### Korxonalar mablag'i

Hajmi	2035,8 mlrd. so'm
O'sishi	101,9 %
Jamiga nisbatan	25,8 %

2

### Aholi mablag'lari

Hajmi	998,9 mlrd. so'm
O'sishi	99,4 %
Jamiga nisbatan	12,7 %

3

### To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

Hajmi	415,4 mlrd. so'm
O'sishi	179,5 %
Jamiga nisbatan	5,3 %

4

### Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari


Hajmi	521,5 mlrd. so'm
O'sishi	99,8 %
Jamiga nisbatan	6,6 %

5

### Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar

Hajmi	2001,6 mlrd. so'm
O'sishi	120,6 %
Jamiga nisbatan	25,4 %

## Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm



2023-yilning yanvar-sentabr oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2035,8 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,8 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,7 % i yoki 998,9 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 415,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 79,5 % punktga ko'payib, 5,3% ni tashkil etdi.

## 2023-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	ulushi, % da
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>7881,0</b>	<b>103,4</b>	<b>100,0</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Amudaryo</b>	<b>394,6</b>	<b>90,0</b>	<b>5,0</b>
<b>Beruniy</b>	<b>258,8</b>	<b>62,6</b>	<b>3,3</b>
<b>Bo‘zatov</b>	<b>81,4</b>	<b>92,6</b>	<b>1,0</b>
<b>Qorao‘zak</b>	<b>1487,4</b>	<b>130,6</b>	<b>18,9</b>
<b>Kegeyli</b>	<b>93,4</b>	<b>76,0</b>	<b>1,2</b>
<b>Qo‘ng‘irot</b>	<b>1074,0</b>	<b>118,1</b>	<b>13,6</b>
<b>Qonliko‘l</b>	<b>144,7</b>	<b>114,7</b>	<b>1,8</b>
<b>Mo‘ynoq</b>	<b>888,0</b>	<b>107,6</b>	<b>11,3</b>
<b>Nukus</b>	<b>254,8</b>	<b>141,0</b>	<b>3,2</b>
<b>Taxiatosh</b>	<b>147,5</b>	<b>74,7</b>	<b>1,9</b>
<b>Taxtakopir</b>	<b>52,1</b>	<b>83,0</b>	<b>0,7</b>
<b>To‘rtko‘l</b>	<b>496,9</b>	<b>108,1</b>	<b>6,3</b>
<b>Xo‘jayli</b>	<b>181,3</b>	<b>97,3</b>	<b>2,3</b>
<b>Chimboy</b>	<b>195,9</b>	<b>96,5</b>	<b>2,5</b>
<b>Shumanay</b>	<b>75,0</b>	<b>74,6</b>	<b>1,0</b>
<b>Ellikqal‘a</b>	<b>410,1</b>	<b>135,6</b>	<b>5,2</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>1645,1</b>	<b>88,0</b>	<b>20,8</b>

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2022-yilning mos davriga nisbatan 20,6 % ga ko‘paydi. Bunday yuqori o‘shishni 2022-2027-yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o‘zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) bo‘yicha dastur, 2020-2030-yillarda neft qazib chiqarish hajmlarini ko‘paytirish va boshqa investitsiya loyihalari bilan izohlash mumkin.

## Qurilish-montaj ishlari



## Mashina, uskuna, inventar

## Boshqa xarajatlar

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlariga 4709,5 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 59,8 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna, inventarlar bo'yicha 2782,8 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 35,3 %) va boshqa xarajatlarga 388,7 mlrd. so'm (4,9 %) o'zlashtirildi.

31,9 %

## Yangi qurilish

51,0 %

## Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya

17,1 %

## Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qo'ng'iro't tumanida kuzatildi – 81,1 % yoki 870,7 mlrd. so'm.


Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Taxiato'sh tumanida kuzatilib, 36,1 % ni yoki 53,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Taxiato'sh tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 59,6 % yoki 87,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 4016,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 51,0 % ini tashkil etdi.


Kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiyalash uchun yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2022-2027- yillarda Tebinbuloq temir ruda konini o'zlashtirish va metallurgiya majmuasini qurish (1-bosqich) loyihasi bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar natijasida Qorao'zak tumanida kuzatilib, u 93,2 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2517,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 31,9 % ini tashkil etdi. Qolgan 17,1 %, ya'ni 1346,6 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hudular bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlarining ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



## Hududlar bo'yicha yangi qurilish ishlariga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




## Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da







## Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



## HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSİYALARGA NISBATAN, % DA



## Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami moliyalashtirish

manbalari hisobidan 2008,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,5 % i o'zlashtirilgan.

### Tog'-kon sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


**TOG'-KON SANOATI  
BILAN BOG'LIQ BOSHQA  
FAOLIYAT**  
56,0 mlrd. so'm  
ulushi 0,7 %

**METALL RUDALARINI  
QAZIB OLISH**  
1190,8 mlrd. so'm  
ulushi 15,1 %

**XOM NEFT VA TABIIY GAZ  
QAZIB OLISH**  
761,6 mlrd. so'm  
ulushi 9,7 %

Tashish va saqlashda jami 1478,8 mlrd.so'm yoki respublika bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 18,8 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 9,3 % i yoki 731,9 mlrd. so'mi quruqlikdagi quvur transporti sohasiga tegishlidir.

## Qoraqalpog'iston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



## Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

mlrd. so'm

	Jami	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3463,5</b>	<b>415,4</b>	<b>1046,5</b>	<b>2001,6</b>
tumanlar:				
Amudaryo	149,6	-	91,9	57,7
Beruniy	6,5	-	-	6,5
Bo'zatov	8,2	-	-	8,2
Qorao'zak	1346,1	149,4	-	1196,7
Kegeyli	13,5	13,5	-	-
Qo'ng'iro't	707,4	147,4	555,1	4,9
Qonliko'l	6,8	3,1	-	3,7
Mo'ynoq	473,0	-	-	473,0
Nukus	96,8	-	87,1	9,7
Taxiatosh	5,3	0,5	1,2	3,6
Taxtako'pir	8,3	-	-	8,3
To'rtko'l	165,2	9,3	87,2	68,7
Xo'jayli	12,9	5,8	1,2	5,9
Chimboy	40,8	10,9	-	29,9
Shumanay	17,7	13,6	-	4,1
Ellikqala	165,6	-	141,6	24,0
Nukus sh.	239,8	61,9	81,2	96,7

**2023-yil yanvar-sentabr oylarida 3463,5 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 43,9 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.**

**Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 1911,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 1551,6 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.**

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 2417,0 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 1046,5 mlrd. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlarning 2022-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,0 % ni tashkil etdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi

